O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBIOTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № BD-60810600 № BD-60811000 2024-yil "10" 10	"TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__"_____

QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800 000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810 000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810600 – Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik

Fan/modul kodi QXM1106 (bakalavriyat)	O'quv yili 2024-2025	Semestr I	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	72	108	180

Fanning maqsadi (FM)	
	FANNING MAZMUNI
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarda qishloq xo'jaligi sohasida (Agrosanoat majmuasida - ASM, Fermer xo'jaliklarida, "Klaster" tizimida mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash) mexanizatsiya vositalarini, qurilma va jihozlarini texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini mukammal biladigan va ularni samarali qo'llashni tashkil etadigan, aholini va sanoatni qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirishga o'z hissasini qo'sha oladigan malakali mutaxassis tayyorlashda fan bo'yicha zarur bo'lgan bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. **Fanning vazifalari:** agrar soha mahulotlarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashning nazariy asoslarini, texnologik jarayonlarni bajarishda maksimal ish unumini ta'minshning asosi bo'lgan energetik vositalar, ish mashinalari, jihoz va qurilmalarning tuzilishini va ishlash jarayonini, hamda ularning Respublikamiz sharoitiga mos keladigan turlarini tanlashni va ulardan samarali foydalanishni, mahsulotlarni saqlashning va qayta ishlashning zamonaviy usullarida tashkil etishni bo'lajak bakalavrlarga o'rgatish va texnologik jarayonlarni loyihalash bo'yicha yo'nalish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Kirish. Traktor va avtomobillarning tasnifi va asosiy qismlari.** Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishning ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari. Vazirlar mahkamasini qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashga oid bo'lgan qonun va qarorlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida energetika vositalaridan foydalanish. Traktor va avtomobillarning qisqacha tarixi. Qishloq xo'jaligi mashinasozlik klasteri va avtomobil zavodlarining ishlab chiqarayotgan texnikalari. Traktor va avtomobillarning tasnifi. Traktor va avtomobillarning asosiy qismlari va ularning vazifalari.
M2	**Ichki yonuv dvigatellari**
	Ichki yonuv dvigatellarining tasnifi. 4 taktli karbyurator va dizel dvigatellarining ishlash prinsipi. 2 taktli karbyuratorli dvigatelning ishlash prinsipi. Ko'p silindrli dvigatellarning ishlashi. Dvigatel mexanizm va tizimlari.
M3	**Traktor va avtomobillarni kuch uzatish qismi (transmissiya)** Transmissiyalarning vazifasi va turlari. Mexanikaviy transmissiyaning afzalligi va kamchiliklari. Traktorlarni kuch uzatish qismi. Avtomobillarni kuch uzatish qismi. Barcha g'ildiraklari yetaklovchi traktor va avtomobillarni kuch uzatish qismlaridagi ayirmasi.
M4	**Traktor va avtomobillarni yurish qismi, boshqarish mexanizmlari va ish jihozlari** Traktor va avtomobillarni yurish qismining elementlari va ularni vazifalari. Traktor va avtomobillarni o'tag'onligi. Yurish ravonligi. Ko'taruvchi sistemalar va osmalar. Rul boshqarmasi. Traktor va avtomobillardagi tormoz tizimlari, ularni tuzilishi va ishlashi. Traktor va avtomobillarni ish va qo'shimcha jihozlari. Ish uskunalarini xillari va vazifalari. Gidravlik o'rnatma tizimlari. Quvvat olish vali (QOV), harakatlantirish shkivi, 2 va 3 nuqtali o'rnatma qurilmalar.
M5	**Tuproqqa asosiy va yuza ishlov berish mashinalari** Tuproqning fizik va texnologik xususiyatlari. Tuproqqa ishlov berish usullari. Pluglar va ularga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Osma, tirkama va maxsus pluglar. Tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalar. Tirmalar. Tirma ishiga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Tishli tirmalarning tuzilishi va texnologik ish jarayoni. Disksimon tirmalar. Disksimon tirmaning vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni. Frezaning vazifasi, tuzilishi va ishlashi.
M6	**O'g'itlash mashinalari** O'g'itlar tasnifi. O'g'itlash usullari. Agrotexnik talablar. O'g'it sochish apparatlari. O'g'itlash mashinalarining vazifasi umumiy tuzilishi va texnologik ish jarayoni.
M7	**Urug' ekish va ko'chat o'tqazish mashinalari** Ekish va ko'chat o'tqazish usullari. Agrotexnik talablar. Seyalkalarning asosiy qismlari. Seyalkalarning tasnifi. Ekish va ko'chat o'tkazish mashinalarining vazifasi, tuzilishi va ishlashi hamda ularni ishga tayyorlash.
M8	**O'simliklarni parvarishlash va himoyalash mashinalari** Ekin qator oralariga ishlov berishga nisbatan agrotexnika talablari. Ekin qator oralariga ishlov berish kultivator-oziqlantirgichning tuzilishi va ishlashi. Kultivatorlarni xar xil ish sxemalariga moslash. Chilpish moslamasining tuzilishi va ishlashi. O'simliklarni himoyalash usullari. Agrotexnik talablar. O'simlik urug'larini dorilagichlar. Purkash qurilmalari. Changlatgichlar va aerozol generatori. Gerbitsid purkagichlar. Himoyalash mashinalarining tuzilishi va ish jarayoni.
M9	**Ekinlar hosilini yetishtirish va terib olishda qo'llaniladigan texnologiyalar va mashinalar** Kartoshka, meva, sabzavot, paxta va boshqa ekinlarni yig'ishtirish mashinalari. Agrotexnik talablar. Kartoshka kovlagichining va kombaynlarining tuzilishi va ishlashi. Sabzavot, meva va dukkakli ekinlar hosilini yig'ishtirishda ishlatiladigan mashinalar.
M10	**G'alla hosilini yig'ishtirish texnologiyalari.**

	G'alla kombaynlarining vazifasi, umumiy tuzilishi va ishi. Don tozalash mashinalari. Donni tozalash va saralash usullari.
M11	**Mashina traktor parkidan foydalanishning asosiy ko'rsatkichlari. Agregatlarni ishlatishda energiya va yoqilg'i sarfi** O'simlikshunoslik uchun mashinalar tizimi, ulardan foydalanish. Qishloq xo'jalik mashinalardan foydalanish sharoitlari. Ishlab chiqarish jarayonlarining turlari. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida texnologik xaritani roli va uni ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar. Agregat turlari: Harakatdagi (mobil), statsionar, yuklash, kanal qazish, transport va paxta terish mashinasi. Agregatning tortish qarshiligi, ish tezligi. Agregatning burilish va harakat turlari. Agregatni tanlash. Talab qilingan agregatlar soni, energiya va yoqilg'i sarfini hisoblash.
M12	**Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni saqlash** Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish turlari va qoidalari. Traktor va qishloq xo'jalik mashinalarini saqlashga tayyorlash va saqlash usullari.
	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**
A1	Traktor va avtomobillarni umumiy tuzilishini o'rganish.
A2	Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlash prinsipi.
A3	Avtotraktorlarning kuch uzatish mexanizmi.
A4	Traktor va avtomobillarni yurish qismlari, boshqarish mexanizmlari va yordamchi ish jihozlari.
A5	Tuproqqa asosiy va yuza ishlov berish mashinalarining turlari, vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari.
A6	O'g'itlash mashinalarining turlari, vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari.
A7	Urug' ekish va ko'chat o'tqazish mashinalarining turlari, tuzilishi va ish jarayoni.
A8	Ekin qator oralariga ishlov berish va o'simliklarni himoya qilish mashinalarining turlari, tuzilishi va ish jarayoni.
A9	O'rim yig'im mashinalarining turlari, tuzilishi va ish jarayoni.
A10	Kartoshka kovlash va meva hosilini yig'ib olish mashinalarining turlari, vazifasi, tuzilishi va texnologik ish jarayonlari.
A11	Melioratsiya va sug'orish ishlarida qo'llaniladigan mashinalar.
A12	Agregat tuzish. Mashina-traktor agregatlarining ish unumini aniqlash.
	IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Laboratoriya (L) **Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**
L1	Traktor g'ildiraklari oralig'ini ekinlar qator orasiga moslash.
L2	Pnevmatik shinalar holatini tuproqilgichning yeyilish darajasi bo'yicha baholash.
L3	G'ildirakli traktorlar rul va tormoz mexanizmlari holatini tekshirish va sozlash.
L4	Mineral o'g'it sochgich miqdorlagichini o'g'it solish me'yoriga rostlash.
L5	Tishli va disksimon tirmaning tuproqqa ishlov berish sifatini baholash.
L6	Chigit seyalkasi miqdorlagichini ekish me'yori va uyalar soniga rostlash.
L7	Don seyalkasi miqdorlagichini ekish me'yori va uyalar soniga rostlash.
L8	Kultivator ishchi qismlarini ekinlar qator orasiga moslash.
L9	Kultivator o'g'it miqdorlagichini o'g'it solish me'yoriga rostlash.
L10	G'alla kombayni don yanchgichi va tozalagichining ish rejimlarini ekinlar turiga qarab o'rnatish.
L11	Don tozalash mashinasiga ekinlar turiga qarab g'alvirlar tanlash.
L12	Agregatning haqiqiy ish unumini ish yo'lidan foydalanish koeffitsienti bo'yicha baholash.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Toshkent qishloq xo'jaligi texnikalari zavodida ishlab chiqarilayotgan traktorlarning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari
2.	O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning texnik tasnifi
3.	Dvigatellarni yurgazib yuborish tizimi, tuzilishi va ishlashi
4.	Xorijiy firma traktorlarining dvigatellari.
5.	Traktorlar o'rnatish qurilmalarining turlari, tuzilishi va ishlashi
6.	Resurstejamkor texnika va texnologiyalar.
7.	Kombinatsiyalashgan agregatlar
8.	Xorijiy firma qishloq xo'jaligi texnikalarining afzalligi va kamchiligi
9.	Suyuq organik o'g'itlarni sepish mashinalari
10.	O'simlik qator oralaridagi begona o'tlarni yo'qotishda mexanikaviy va kimyoviy usullarni birgalikda qo'llash
11.	Ko'chat qator oralariga ishlov berish mashinalari
12.	Bog'dorchilik mashinalari
13.	O'rim-yig'im mashinalari
14.	Donni qayta ishlash mashinalari
15.	Meva yetishtirish va yig'ishtirishda qo'llanadigan mashinalar
16.	Aqilli qishloq xo'jaligi texnikalari.
17.	Texnologik-hisob xaritasi
18.	Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish
19.	Mashina-traktor agregatini saqlash
20.	Foydalanish jarayonida mashina va jihozlarda paydo bo'ladigan texnik nosozliklarini tuzatish

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi. Keltirilgan mavzularning har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim va ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3	**VI. Fanni o'zlashtirishining natijasida (shakllangan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - **"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish"** respublikamizda va chet ellarda qo'llaniladigan asosiy ishlab chiqarish jarayonlarining tizimlari va ularning zamonaviy vositalari va energetikasi to'g'risida ***tasavvurga va bilimga ega bo'lishi kerak;*** - **"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish"** fanida respublikamizda va chet elda ishlab chiqarilayotgan traktor va ish mashinaparini tanlash va ulardan ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;*** - qishloq xo'jaligi ishlarini bajarish uchun texnologik xaritani tuzishni, qishloq xo'jaligini elektrlashtirish vositalaridan foydalanish, vatanimiz va xorijda ishlab chiqarilayotgan mashinalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish, ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok eta bilish kabi ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4	**VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari** • Ma'ruzalar; • Interfaol keys-stadilar; • Seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni qilish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • Ko'chma dars mashg'ulotlari.
5.	**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6.ASOSIY ADABIYOTLAR

1.Obidov A., Xalilov R. va boshqalar. Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish. Darslik.-T., "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. -178 b.

2.Nurmixamedov B.U., Mamasov Sh.A. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish. Darslik. -SamDU nashriyoti, 2021, 333 b.

3.Mamasov Sh.A., Nurmixamedov B.U., Mirzaxodjayev Sh.Sh. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. -SamDU nashriyoti, 2021. -164 b.

4.Mamasov Sh.A., Nurmixamedov B.U., Pardayev X.Q., Allanazarov M.A. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma.–Samarqand: SamDU nashriyoti, 2024. – 216 b.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

3. Toshboltaev M. Paxtachilik va g'allachilik mashinalarini rostlash va samarali ishlatish. Qo'llanma "Fan" nashriyoti, 2012. -198 b.

4. Solihov I. Traktorlar va avtomobillar, Darslik.-T., "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi", 2012. -510 b.

5. Obidov A. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va dastlabki ishlashni mexanizatsiyalash. Darslik.-T., "Tafakkur qanoti" nashriyot bo'limi, 2020. -467 b.

6. Mirzaxodjayev Sh.Sh., Mamasov A. Oziqa ekinlari yetishtirishni mexanizatsiyalashtirish. O'quv qo'llanma. "SamDU nashryoti", 2021. -256 b.

7. Shoumarova M., Abdillaev T. Qishloq xo'jaligi mashinalari. Darslik.-T., "O'qituvchi" nashriyoti, 2009. -503 b.

8. Obidov A. Mashina-traktor parkidan foydalanish. O'quv qo'llanma. "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2013. -365 b.

AXBOROT MANBAALARI

1. www.gov.uz- O'zbekiston Ruspublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz- O'zbekiston Ruspublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. https://amazone.net/ru
4. https://ziyouz.uz/kutubxona/

7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **Mamasov Sh.A.** - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi. **Nurmixamedov B.U.** - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi.
	Taqrizchilar: **Pardayev H.Q.** - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Agroinjeneriya kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) (tel:(99)5920982); **Bobobekov I.N** - Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar" kafedrasi dotsenti, q.f.f.n. (tel:(90)2856969).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:
Rais - **Sh.T.Xolqulov.**

Kafedra mudiri: **Sh.T.Xolqulov**

Institut o'quv uslubiy kengash raisi: **Sh.Mamasov**

Institut direktori: **T.F.Rajabov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

1-O'QUV USLUBIY BOSHQARMA

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Tayyorlangan dastur va sillabusda talabalarning Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fani bo'yicha zarur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda qishloq xo'jaligi sohasida mexanizatsiya vositalarini, qurilma va jihozlarni texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini biladigan va ularni samarali qo'llashni tashkil etadigan, aholini va sanoatni qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirishga o'z hissasini qo'sha oladigan malakali mutaxassis tayyorlashda fan bo'yicha zarur bo'lgan bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish asosiy maqsad qo'yilgan.

Talaba ushbu fanni o'qishi davomida madaniy agrar soha mahulotlarini ishlab chiqarishida qo'llaniladigan energetik vositalar, ish mashinalari, jihoz va qurilmalarning tuzilishini va ishlash jarayonini hamda ularning Respublikamiz sharoitiga mos keladigan turlarini tanlashni va ulardan samarali foydalanishni organib oladi.

60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishlari 1-kurs talabalari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fani 1-semestrlarga rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashgulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzularga alohida e'tibor berilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga kiritilmagan mavzular qamrab olingan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishlari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fanidan tuzilgan bo'lib, fanning malaka talablariga mos keladi va undan ta'lim jarayonida foydalanish mumkin deb hisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Tuproqshunoslik va agrotexnologiya" kafedrasi dotsenti, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent **I.N.Bobobekov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik a'lim yo'nalishlari talabalari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda fan dasturi va sillabuslarni fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, fan dasturi va sillabusi o'tiladigan fanlarning o'qitilish shakli va mavzularini ketma-ketligini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishlari 1-kurs talabalari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fani 1-semestrga rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularni bajarishlarida fanning bo'limlaridagi mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishi orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishiga alohida e'tibor qaratilgan. Fan dasturi va sillabusni tuzishda muallif fanning maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalarini ko'rsatishga e'tibor qaratgan. Shunindek fanni baholashda kredit mezoni va tartibi, darsdagi faolligi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, bajarish bosqichlari ularga ajratilgan ballari keltirilgan. Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirilgan abadiyotlar o'zining fan mavzulariga yaqinligi, fanning ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganishda foydalanish uchun zarurligini alohida ta'kidlash mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, 60810600 - Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi va 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishlari uchun Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish fanidan tuzilgan ushbu fan dasturi va sillabus fanning malaka talablariga mos keladi va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblyman.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Agroinjeneriya" kafedrasi v.b. dotsenti (PhD) **X.Q.Pardayev**